MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH

Azimova Durdonaxon Dilmurodjon qizi
QDU Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) 2-bosqich magistranti
Email. *durdonaxonazimova474@gmail.com*.
Tel: +99890 550 89 35

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik, interfaol hamda raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali ta’lim-tarbiya jarayonini innovatsion rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotimda O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi Qonuni, "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid so‘nggi farmon va qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar asos qilib olindi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy, ilmiy-ijodiy va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘yin texnologiyalari, STEAM yondashuvi hamda axborot-kommunikatsiya vositalarining samadorligi ilmiy manbalar va kuzatuvlar asosida isbotlab berilgan.

Kalit so’zlar: innovatsion ta’lim, maktabgacha ta’lim, pedagogik texnologiya, innovatsiya, “Ilk qadam” dasturi, STEAM ta’lim, o‘yin texnologiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, raqamlashtirish.

KIRISH

Maktabgacha ta’lim yoshi – inson shaxsiyatining poydevori shakllanadigan, uning intellektual, emotsional va ijtimoiy imkoniyatlari yuzaga chiqadigan eng mas’uliyatli davr hisoblanadi. Jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlari bevosita maktabgacha ta’lim tizimining qanchalik zamonaviy va samarali tashkil etilganligiga bog‘liqdir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, bolalarni sifatli va zamonaviy ta’lim-tarbiya bilan qamrab olish

borasida ulkan strategik qadamlar tashlandi O‘zim olib borayotgan ilmiy-tadqiqot ishim davomida maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani chuqur tahlil qildim. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi Qonunining 4-moddasida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari sifatida har bir bola uchun ta’lim olish imkoniyatining mavjudligi hamda bolaning shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsiy yondashuv belgilab qo‘yilgan [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida men pedagogik kuzatuv, qiyosiy-tahlil, ped-eksperiment hamda maktabgacha ta’limga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni umumlashtirish metodlaridan foydalandim. Maktabgacha pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishda va tarbiyalashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash borasida ko‘plab maxalliy va xorijiy olimlar tadqiqot olib borishgan. Taniqli pedagog olima F.R. Qodirova va uning hammualliflari ta’kidlaganidek, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda ta’lim-tarbiyaning shaxsga yo‘naltirilgan modeli ustuvor bo‘lib, u bolaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi [2].O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan Maktabgacha ta’lim tashkilotining "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi bolalarni rivojlantirishning 5 ta asosiy sohasini (jismoniy rivojlanish, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, nutq va savodxonlik, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish) integratsiyalashgan holda olib borishni talab etadi [3]. Xorijiy tajribaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, J. Piaget va L. Vygotsky kabi psixolog-olimlar ta’lim berishda bolaning faol ijtimoiy va amaliy faoliyatini birinchi o‘ringa qo‘yishgan. Zamonaviy xorijiy tadqiqotchi Y. Hafting ta’kidlashicha, maktabgacha yoshda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) texnologiyasini qo‘llash bolalarda tanqidiy va ilmiy fikrlash poydevorini ilk yoshdanoq shakllantiradi

Shuningdek, R.J. Ishmuhamedov va M. Yuldashevlar o‘z ilmiy ishlarida interfaol usullarni maktabgacha ta’limga moslashtirib qo‘llash tarbiyalanuvchilarning darsdagi faolligini 2–3 barobarga oshirishini isbotlab berganlar [4].

NATIJALAR

Men o‘z ilmiy-tadqiqot ishim davomida maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonini kuzatganimda va tahlil qilganimda, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish quyidagi aniq va ijobiy natijalarni berishini aniqladim:

O‘yin texnologiyalarining samaradorligi: Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati o‘yin bo‘lganligi sababli, ta’limiy va rivojlantiruvchi o‘yinlar (didaktik, syujetli-rolli, harakatli) orqali berilgan bilim va ko‘nikmalar bolalar xotirasida tezroq va mustahkamroq saqlanib qoladi.

STEAM ta’lim yondashuvi: Bolalarga tabiiy hodisalar, sodda fizika va matematika tushunchalarini amaliy tajribalar, yasash, modellashtirish (Lego, konstruktorlar) va san’at usullari orqali o‘rgatish ularning tahliliy fikrlash qobiliyatini keskin rivojlantiradi.

Raqamli va multimedia vositalarining o‘rni: Interfaol doskalar, rivojlantiruvchi animatsiyalar hamda audiokitoblardan me’yorida va maqsadli foydalanish bolalarning vizual hamda audial idrokini boyitadi.

MUHOKAMA

Izlanishlarim ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limda innovatsiyani qo‘llash shunchaki texnik vositalardan foydalanish emas, balki bolaning ruhiy va yosh xususiyatlariga mos holda rivojlantiruvchi muhitni (Environment as a third teacher) yaratishdir. N.X. Avliyoqulov va N.N. Murodovalarning ta’kidlashicha, har qanday pedagogik texnologiya aniq natijaga erishishga qaratilgan va oldindan loyihalashtirilgan tizim bo‘lishi lozim [5] Maktabgacha ta’lim xususiyatidan kelib chiqqan holda, ushbu loyihalashtirish pedagogik, psixologik hamda fiziologik qonuniyatlarga qat’iy bo‘ysunishi shart. Shuningdek, N.M. Kayumovaning tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion texnologiyalar vositasida ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash va ularni maktab ta’limiga psixologik-pedagogik jihatdan tayyorlash o‘zaro uzviy bog‘liq jarayondir [6]. Ayrim tarbiyachilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli platformalar bilan ishlash bo‘yicha metodik ko‘nikmalarining yetarsizligi;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashda me’yorni buzish (bolalarni ekranga o‘rgatib qo‘yish) va buning natijasida bolalarda jonli muloqot va harakatning cheklanishi;

Ba’zi chekka hududlardagi MTTlarda innovatsion va STEAM o‘quv-metodik materiallarining yetishmasligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi kompleks innovatsion-pedagogik tizimni tatbiq etish zarur deb hisoblayman.

XULOSA(CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachilarning innovatsion kompetensiyasini oshirish: MTT tarbiyachilari va metodistlari uchun STEAM ta’limi, "Ilk qadam" dasturini interfaol metodlar orqali amalga oshirish hamda raqamli texnologiyalardan savodli foydalanish bo‘yicha amaliy treninglar va mahorat darslarini ko‘paytirish kerak.

Rivojlantiruvchi muhitni boyitish: Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi o‘yin va o‘quv xonalarini STEAM texnologiyasiga mos bo‘lgan laboratoriya, modellashtirish va ijodkorlik markazlari bilan bosqichma-bosqich ta’minlash.

Raqamli gigiyenaga rioya qilish: Maktabgacha ta’limda multimediya va axborot texnologiyalaridan foydalanishda bolalarning yosh va fiziologik me’yorlariga (ekran vaqti 10–15 daqiqadan oshmasligi) qat’iy amal qilish.

Oila va MTT hamkorligini innovatsion tashkil etish: Ota-onalar bilan ishlashda zamonaviy muloqot va interfaol metodlardan (elektron tavsiyalar, onlayn konsultatsiyalar) foydalanib, oiladagi tarbiya jarayonini ham innovatsion asosga o‘tkazish lozim.

ADABIYOTLAR RO’YXATI(REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi O‘RQ-595-son Qonuni. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida"gi PQ-4312-son Qarori. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.05.2019-y., 07/19/4312/3097-son.

3. Qodirova F.R., Tashpulatova Sh.Q., Azimova N.M. Maktabgacha pedagogika. Darslik. – Toshkent: "Tafakkur", 2019. – 360 b.

4. "Ilk qadam" maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). – Toshkent: Maktabgacha ta’lim vazirligi, 2022. – 128 b.

5. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar. – Toshkent: "Nihol", 2021. – 208 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-158-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

7. Avliyoqulov N.X., Murodova N.N. Pedagogik texnologiyalar. Darslik. – Toshkent: "Tafakkur bo‘stoni", 2015. – 316 b.

8. Kayumova N.M. Maktabgacha ta’limda innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish. monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021. – 160 b